

Mahalla faoliyatida faol ishtirok etayotgan fuqarolarga qanday imtiyozlar mavjud?

– Ancha vaqtdan buyon “Xumsoy” mahallasida rais bo‘lib ishlab kelaman. Aholining muammolarini o‘rganib murojaatlariga ijobiy yechim topishga harakat qilamiz. Mahalla ahli xar bir ishda faol. Ular ham qo‘ni-qo‘shnisiga qo‘lidan kelgancha yordam berib ko‘maklashib turadi. Hududda mahallaga xodimlarga benazir yordam berib kelayotgan odamlar bisyor. har qanday vaziyatda o‘zlarining tashabbuslari bilan bizga yordam berib qo‘llab-quvvatlab turishadi. Mahalladagi kam ta‘minlangan, ehtiyojmand, boquvchisini yo‘qotgan, daftardagilarga imtiyozlar yaratilgan. So‘raganim mahalla faoliyatida faol ishtirok etayotgan fuqarolarga ham qandaydir imtiyozlar mavjudmi?

**Zoir MIRSIDDIQOV,
Bo‘stonliq tumani
“Xumsoy” mahallasi raisi.**

Savolga “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish boshqarmasi mas’ul xodimi Sherzod MAQSUDOV javob berdi:

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021-yil 23-fevraldagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida faol ishtirok etib kelayotgan fuqarolarni rag‘batlantirish tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi 99-son qarori bilan Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida faol ishtirok etib kelayotgan fuqarolarga kommunal xizmatlar uchun majburiy to‘lovlar bo‘yicha kompensatsiya pul to‘lovlarini to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan.

Ushbu qarorga ko‘ra, 2021-yil 1-martdan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida faol ishtirok etib kelayotgan fuqarolarga kommunal xizmatlar uchun majburiy to‘lovlar bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 50 foizi miqdorida har oyda kompensatsiya pul to‘lovlari to‘lanishi belgilangan.

Shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida faol ishtirok etib kelayotgan fuqarolar faoliyatining samaradorligini baholashning asosiy ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar belgilandi:

– tegishli hududda ko'cha va ko'p kvartirali uylardagi obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish;

– o'zi yashayotgan ko'cha va ko'p kvartirali uylardagi “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolar bilan ishlash;

– o'zgaralar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar va nogironlarga, boquvchisini yo'qotgan oilalarga, notinch va muammoli oilalarga yordam ko'rsatish;

– aholining issiqlik va elektr energiyasidan, tabiiy gazdan, issiq va sovuq suvdan tejimli foydalanishlarini targ'ib qilish;

– tegishli hududda to'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilishini tartibga solish masalalarida fuqarolar yig'ini kengashiga bergan takliflari bilan o'ziga biriktirilgan hudud osoyishtaligi va obodligi uchun ko'maklashish;

– aholi tinchligi uchun xavf tug'diruvchi holatlarni bartaraf etish maqsadida fuqarolar yig'iniga yoki mutasaddi organlarga xabar berganligi natijasida tegishli hududda huquqbuzarliklarning oldini olish;

– fuqarolar yig'ini majlisi (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) qarorlari bo'yicha amalga oshirilgan targ'ibot ishlari.

Ko'chaboshi va uyboshilar faoliyatini baholashda ularning biriktirilgan ko'cha yoki uyda kamida uch oy davomida faoliyat ko'rsatganligi inobatga olinib, har oylik kompensatsiya pul to'lovlari mezonlardan kelib chiqqan holda 70 balldan yuqori ball to'plagan ko'chaboshi va uyboshilarga to'lanadi.

Eslatma! *Kompensatsiya pul to'lovlari to'lanishi ko'chaboshi va uyboshilar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida faol ishtirok etmasa muddatidan oldin to'xtatiladi.*